


Farg'ona viloyatining  
TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-avgust)

2019 yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 907,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 % ga kamaygan. Shu jumladan, eksport hajmi 394,8 mln. AQSh dollarga (113,6 %ga o'sgan) va import hajmi 513,0 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 87,9 % ga) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 118,2 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.


\*Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi  
(mln. AQSh dollari)



\* *tezkor ma'lumot*

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2018-2019 yillarda tovar va xizmatlarning eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**  
(mln. AQSh dollari)



2019 yil yanvar-avgust oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning iyul oyida ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Xitoy	246,3	723,6	173,9	26,4
Rossiya	178,4	91,6	86,8	19,6
Qozog'iston	111,6	36,8	74,8	12,3
Qirg'iziston	110,2	82,2	27,9	12,1
Turkiya	69,2	40,8	28,4	7,6
Tojikiston	25,4	8,1	17,3	2,7
Germaniya	18,3	0,5	17,8	2,0
Koreya Respublikasi	19,6	4,1	15,6	2,2
Polsha	16,9	12,1	4,8	1,8
Latviya	14,9	0,6	14,4	1,6

*(mln. AQSh dollari)*

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Ukraina	8,9	5,7	3,3	0,9
Misr	9,1	8,7	0,4	1,0
Litva	7,6	0,2	7,4	0,9
Yaponiya	9,1	0,4	8,7	1,0
Bangladesh	7,3	7,3	0,0	0,8
Afg'oniston	5,8	5,8	0,0	0,6
Vetnam	4,1	4,0	0,1	0,5
Italiya	3,5	0,5	3,0	0,4
Turkmaniston	4,3	0,7	3,6	0,5
Eron	3,1	0,6	2,5	0,4
Belarusiya	3,1	1,3	1,8	0,3
Hindiston	2,5	0,0	2,5	0,3

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 57,4 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 119,9 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning yanvar- avgust oylarida o'tgan yil shu davrga nisbatan 106,4% oshgan bo'lsa, viloyatning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi esa 51,2% ga yetdi.



### **EKSPORT.**

2019 yil yanvar yanvar-avgust oylarida eksport hajmi 394,8 mln. AQSh dollarga (2018 yilning shu davriga nisbatan 113,6% ga o'sgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,4 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (43,4%), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (3,9%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,5 %), qora va rangli metallar (0,3%), mashina va uskynalar (0,3%),shuningdek xizmatlar eksporti (1,7 %) va boshqalar (50,2%) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSh dollari)

2018 yil (yanvar-avgust)

2019 yil (yanvar-avgust)



- paxta tolas
- oziq-ovqat mahsulotlari
- kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- Energiya manbalari va neft mahsulotlari
- qora va rangli metallar
- Mashina va asbob -uskunalar
- Xizmatlar
- Boshqalar


### Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	<b>394,8</b>	<b>113,6</b>	<b>100,0</b>	<b>226,9</b>	<b>119,6</b>	<b>100,0</b>	<b>167,9</b>	<b>106,4</b>	<b>100,0</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	171,3	146,9	43,4	152,7	137,7	67,3	18,6	3,6M	11,1
<b>Kimyo mahsulotlari va</b>	1,9	82,8	0,5	1,6	90,2	0,7	0,3	21,3	0,2

**buyumlari**

<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	15,5	93,6	3,9	8,7	84,6	3,8	6,8	108,4	4,1
<b>Qora va rangli metallar</b>	0,1	114,3	0,0	0,1	113,4	0,0	0,0	0,0	0,0
<b>Mashina va asbob - uskunalar</b>	1,1	83,6	0,3	0,3	69,7	0,1	0,8	5,1 m	0,5
<b>Xizmatlar</b>	6,9	196,0	1,7	4,7	136,5	2,1	2,2	199,0	1,3
<b>Boshqalar</b>	198,0	96,5	50,2	58,8	93,3	25,9	139,2	97,7	82,9

**Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan 113,6 % ga oshgan.


Xizmatlar eksporti hajmi 6,9 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,7% tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 martaga ko'payganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

## 2018-2019 yanvar-avgust oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti ( mln. AQSh dollari)



## Viloyat eksportida asosiy yirik hamkor davlatlarning ulushi (yanvar - avgust)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 50,8 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Farg'ona viloyatining  
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Rossiya	84,0	91,6	24,2	23,2	1	1
Qirg'iziston	30,6	82,3	8,8	20,8	4	2
Xitoy	75,2	72,4	21,6	18,3	2	3
Turkiya	23,5	40,8	6,8	10,3	5	4
Qozog'iston	63,8	36,8	18,4	9,3	3	5
Polsha	12,7	12,0	3,7	3,1	7	6
Tojikiston	4,5	8,1	1,3	2,1	9	7
Misr	0,8	8,7	0,3	2,2	35	8
Bangladesh	13,6	7,3	3,9	1,9	6	9
Ukraina	3,0	5,6	0,9	1,4	11	10
Afg'oniston	3,3	5,8	0,9	1,5	10	11
Vetnam	3,2	4,0	0,9	1,0	13	12
Koreya Respublikasi	4,5	4,0	1,3	1,0	8	13
Belgiya	1,6	1,8	0,5	0,5	15	14
Marokko	0,4	1,6	0,1	0,4	28	15
Belarus	1,9	1,2	0,6	0,3	14	16

**Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar  
bilan eksport tarkibi**  
(yanvar-avgust)

( mln. AQSh doll.)

	Rossiya Respublikasi		Qirg'iziston Respublikasi	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
<b>Jami eksport</b>	<b>84,0</b>	<b>91,6</b>	<b>30,7</b>	<b>82,2</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	29,8	40,7	22,5	74,7
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar	0,0	0,0	1,3	1,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,0	2,5	3,6	1,5
Qora va rangli metallar	0,0	0,0	0,0	0,0
Mashina va uskunalar	0,4	0,2	0,1	0,0
Xizmatlar	3,3	4,5	0,0	0,1
Boshqalar	50,5	43,4	3,0	4,8

**Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

2019 yilning yanvar-avgust oylarida jami 163,9 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 153,9 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati 1,3 martaga ko'paygan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida 58,8 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 41,9 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,6 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 88,0 ming tonna meva va rezavorlar 89,9 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,4 ming tonnaga ko'pdir.



**Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi**






Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 153,9 mln .AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 martaga ko'paygan.).

**Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi**

Davlat nomi	2018 yil yanvar-avgust			2019 yil yanvar- avgust		
	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %
Qozog'iston	46,8	56,5	49,1	52,4	32,8	21,3
Rossiya	37,9	29,3	25,5	62,3	40,1	26,0
Qirg'iziston	21,7	22,3	19,4	37,3	73,8	51,2
Tojikiston	0,2	0,1	0,08	0,04	0,5	0,3
Ukraina	1,0	0,8	0,7	7,0	2,7	1,7
Xitoy	0,2	0,3	0,3	0,3	0,5	0,3

**IMPORT**


Joriy yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi 513,0 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 87,9% ) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (37,6%), energiya manbalari va neft mahsulotlari (9,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,1 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,6%), qora va rangli metall (10,9%), import xizmati (1,3%) hamda boshqalar (19,9 %) hisobiga to'g'ri keldi.

**Tovar va xizmatlar importi tarkibi**
*(mln.AQSh dollari)*
**2018 Yil  
yanvar- avgust**

**2019 йил  
yanvar- avgust**


**Import tarkibi**

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	<b>513,0</b>	<b>87,9</b>	<b>100,0</b>	<b>215,4</b>	<b>62,3</b>	<b>100,0</b>	<b>297,2</b>	<b>188,5</b>	<b>100,0</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	46,7	134,6	9,1	37,1	152,4	17,2	9,6	92,8	3,2
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	59,4	127,7	11,6	15,5	121,7	7,2	43,9	130,0	14,8
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	49,0	22,1	9,6	48,8	22,0	22,7	0,2	73,6	0,1
<b>Qora va rangli metallar</b>	55,8	97,9	10,9	31,1	171,4	14,4	24,7	63,6	8,3
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	192,8	140,7	37,6	7,0	111,7	3,2	185,8	142,1	62,5
<b>Xizmatlar</b>	6,9	152,1	1,3	0,6	3,6 m	0,3	6,3	143,8	2,1
<b>Boshqalar</b>	102,0	124,3	19,9	75,4	119,8	35,0	26,9	139,0	9,1

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-avgust oylari davomida eng past o'sish sur'atlari kuzatilgan.

**Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi**  
*(o'tgan yilga nisbatan, %)*


Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovar va xizmatlar 2018 yilning mos davriga nisbatan 87,9% ga kamaygan.

**Farg'ona viloyatiga**  
**asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**


Davlat nomi	Mln. AQSh dollari.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Xitoy	145,6	173,9	25,0	33,9	2	1
Rossiya	173,2	86,8	29,7	16,9	1	2
Qozog'iston	126,2	74,8	21,6	14,6	3	3
Turkiya	128,6	28,4	2,2	5,5	7	4
Qirg'iziston	26,8	27,9	4,6	5,4	4	5
Germaniya	13,2	17,8	2,3	3,5	5	6
Tojikiston	5,3	17,3	0,9	3,4	11	7
Latviya	7,3	14,4	1,3	2,8	10	8
Koreya	13,3	15,6	2,3	3,0	8	9

Litva	3,7	7,4	0,6	1,4	15	10
Yaponiya	0,2	8,7	0,0	1,7	34	11
Polsha	0,9	4,8	0,2	0,9	23	12
Ukraina	3,4	3,3	0,6	0,6	18	13
Italiya	4,4	3,0	0,7	0,6	16	14
Turkmaniston	8,5	3,6	1,5	0,7	9	15
Hindiston	11,5	2,5	2,0	0,5	6	16
Eron	2,4	2,5	0,4	0,5	19	17
Tayvan	0,4	2,0	0,1	0,4	27	18
Niderlandiya	2,4	1,8	0,5	0,4	17	19
Belorus	1,7	1,8	0,3	0,4	21	20

### Xizmatlar importi tarkibi, (%) 2019 yil yanvar-avgust


Xizmatlar importi hajmi 6,9 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 1,3% ini tashkil etadi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, moliya, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

### 2018-2019 yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi ( mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar o'tgan yilning yanvar-avgust davriga nisbatan 70,6 mln.AQSh dollarga kam import qilindi va 513,0 mln.AQSh dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning tovar va xizmatlar hajmi**  
**Yanvar-avgust 2019 yil**  
*( mln. AQSh dollari)*



2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizga 61 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi hajmi amalga oshirilgan. Shulardan 11 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston, Germaniya va Korea Respublikasi, Latviya, Tojikiston Respublikasi, Litva, Yaponiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 473,0 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 92,2% ni tashkil qiladi.